

Scientific Journal of SCIENTIFIC PROGRESS

ISSN: 2181-1601

ACCEPTANCE AREAS OF THE JOURNAL

- mathematics, physics, informatics;
- chemistry, ecology, geography;
- advances in biology and medicine;
- history, law, aesthetics;
- philology and language teaching;
- physical education and sports;
- music, art and culture;
- philosophy, logic and sociology;
- technical sciences, architecture and economics;
- pedagogy, psychology, defectology



2021/IX

VOLUME #2
ISSUE #5

www.scientificprogress.uz



SCIENTIFIC PROGRESS

Scientific Journal

VOLUME #2, ISSUE #5, SEPTEMBER 2021

ISSN: 2181-1601



UZBEKISTAN

BADIIY MATNNING O'ZIGA XOSLIGI (STRUKTURALISTIK TALQINDA)**Mohinur Faxritdinovna Farmonova**

Buxoro davlat universiteti stajyor-tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada milliy adabiyotshunosligimizga strukturalistik oqimning kirib kelishi, ilk ilmiy izlanishlar, uning asar tahlilidagi ahamiyati haqida so'z boradi. Tadqiqotda struktural talqinda badiiy asar va badiiy matnni qay tartibda farqlanishi izohlangan. Asosiy farqlar sharhlanib, ilmiy izlanuvchilar uchun jadval ko'rinishida sodda shaklda berilgan. Maqola o'zbek adabiyotshunosligida yosh soha bo'lgan struktural metodning mohiyati va ahamiyatining dolzarbligini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: strukturalizm, poststrukturalizm, struktural talqin, badiiy matn, badiiy asar, belgi munosabatlari, bir qatlamlilik, ko'p qatlamlilik, ma'nolar jangi, g'ayrimatn.

CHARACTERISTICS OF THE ARTISTIC TEXT (IN STRUCTURALISTIC INTERPRETATION)**ABSTRACT**

This article discusses the penetration of structuralist currents into our national literature, the first scientific research, and its importance in the analysis of the work. The study explains the structural distinction between a work of art and a literary text. The main differences are explained and presented in a simple tabular form for researchers. The article proves the relevance and importance of the structural method, which is a young field in Uzbek literature.

Keywords: structuralism, poststructuralism, structural interpretation, literary text, work of art, character relations, single-layer, multi-layer, battle of meanings, non-text.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining keng ko'lamliligi bilan millat va yurtning yorqin kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ilg'or islohotlarning asosiy qismi ilm-fanga qaratilgani tahsinga loyiq, negaki, ilmdagi har qanday yuksalish mamlakat kelajagiga daxldordir. Ilmga ochilgan istiqbolli keng yo'l sabab, xususan, o'zbek adabiyotshunosligi sohasiga ham jahon andazasidagi zamonaviy metod va uslublarning kirib kelishi ilmiy tafakkur taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, milliy adabiyotimizda ham turli yangicha ilmiy konsepsiyalarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda o'zbek adabiyotshunosligida "struktura", "struktural tahlil", "badiiy matn" kabi badiiy asarni o'zgacha tadqiq manbayi sifatida baholovchi tushunchalar ancha sezilarli qo'llanilmoqda. Ammo hali bu atamalarning

barcha adabiyot ahli uchun tushunarli emasligi bu borada ko'proq ilmiy izlanish va tadqiqotlarga muhtojligimizni bildiradi. Holbuki, strukturalizm jahon ilm-fani sahifalarida o'tgan asrning 60-yillarida paydo bo'lgan edi, bugungi kunda esa rivojlangan mamlakatlar ilmiy tadqiqotlarda strukturalizmdan keyin, ayni uning ta'siri bilan yuzaga kelgan poststrukturalizm metodlaridan foydalanmoqda. Ayni shu sababning o'zi ham struktural tadqiq masalalarini bor mohiyati bo'yicha o'rganish va amaliyotga tatbiq qilish zaruratini oshirib, adabiyotshunoslarga bir qator muhim vazifalar mas'uliyatini yuklaydi. Bu mas'uliyatni esa ilm-fan oldidagi burchimiz deb bilishimiz shart.

O'zbek adabiyotshunosligida strukturalizm va struktural tadqiq borasidagi ilk ilmiy izlanishlar 2000-yillar boshlariga to'g'ri keladi. Xususan, adabiyotshunos olimlar A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, S.Meliyev, M.Xolbekov, G'.Murodovlarning bir qator maqola va risolalarida strukturalizmning mohiyati, tadqiq usullari samaradorligi borasida fikrlar bildirilgan¹. Keyingi yillarda badiiy matnni struktural tahlil qilish borasidagi ishlarning ancha ko'zga tashlanib qolganligi milliy adabiyotimizning zamonaviy yutug'idir. Negaki, struktural tahlil adabiyotshunosdan zargarona nigoh, mohir tadqiqni talab qiladi. Bu esa milliy adabiyotimizda barkamol asarlarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Struktural tahlil tushunchasi bugungi kun adabiyotshunosi, kitobxoni, umuman olganda, badiiyat ixlosmandi uchun ikki hodisani bir-biridan chuqur farqlashi lozimligini uqtiradi: **badiiy asar** va **badiiy matn**. Ayni shu tafovutdan struktural tadqiq boshlanadi, an'anaviy tahlil o'z o'rnini tadrijiy yangi tafakkur oqimiga bo'shatib beradi. Shu o'rinda biz badiiy asar va badiiy matnni quyidagi ketma-ketliklar asosida farqlab, izoh berishga harakat qilamiz:

1. Badiiy asar moddiy (materialistik) xarakterga ega : uni yozuv orqali ko'rish, audiofayl holatida tinglash, ushlab, sotib olish yoki kitob javoniga qo'yish mumkin. Badiiy matn esa moddiylikdan xoli bo'lgan mavhum (idealistik) hodisadir, u yozuvda emas, kitobxonning tafakkur olamida paydo bo'ladi va shu olamda yashaydi.
2. Badiiy asar o'z muallifiga ega bo'ladi. Muallifning "men"i tahlil jarayoniga kirib kelaveradi, asarning yutuq va kamchiliklari muallifga bog'liq holda baholanadi. Badiiy matn esa muallifni tan olmaydi va unga bo'ysunmaydi. Matn muallif hukmi ostidan chiqib ketadi, muallif unga hukmronlik qilolmaydi. Muallifga

¹ Rasulov A. Struktura va strukturalizm. – Manba: Rasulov A. Badiiylik – bezavol mezon. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh muharririyati, 2007; Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. - UrDU, 2008 (hammualliflikda); Xolbekov M. Struktur adabiyotshunoslik (risola). – Toshkent: Fan, 2014 – 136 b.; Yoqubov I. Struktural poetika imkoniyatlari // O'zbek tili va adabiyoti, 2006, 3-son. – B. 3-12; Xolbekov M. Rolan Bart va struktur adabiyotshunoslik // "O'zbek tili va adabiyoti", 2013, 2-son; Meliev S. Strukturalizm va struktural tahlil xaqida. // "O'zbek tili va adabiyoti", 2008, 2-son; Qahramonov Q. Adabiy tanqidda struktur metod talqini. // "O'zbek tili va adabiyoti", 2009, 5-son; Karim B. Struktural metod. – Manba: Karim B. Ruhيات alifbosi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2016; Saidova R., Murodov G'. Badiiy matnda belgi munosabatlari. – Toshkent: Navro'z, 2019.

faqat obraz sifatida qaraladi, tahlil jarayonida ham muallif obrazi tarzida yondashiladi.

3. Badiiy asar o'ziga xos janriy tuzilish, bo'linishga (band, misra, bayt, bob...) ega bo'ladi, uni ayni shular orqali alohida tahlilga tortsa bo'ladi. Badiiy matn esa yaxlit bir struktura – tizimdir. Undagi barcha bo'laklar shu strukturaning qismi – uzvi sanaladi va har bir uzv boshqa uzvlar bilan chambarchas bog'lanadi.
4. Badiiy asar muayyan chegaraga ega, aniq janriy o'lchamlarga bo'ysunadi (masalan, tuyuq – albatta, 4 misra bo'lishi shart yoki sonet 2 ta to'rtlik va 2 ta uch misralik bandlar bilan chegaralanadi; ular ham shaklan, ham mazmunan ayni shu hududdagina mavjud bo'ladi). Badiiy matn esa hech qanday chegarani tan olmaydi, u har qanday o'lcham va hududdan tashqarida. U cheksizlikka intiladi va har tomonlama – bo'yiga, eniga, yoniga, tepaga, pastga – sarhadsizdir: yoyilaveradi, o'saveradi chuqurlashaveradi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, “matn cheksizligi” tushunchasi strukturalist Rolan Bart tomonidan ilmga tatbiq qilingan. Ammo barcha strukturalistlar bu borada yakdil deya olmaymiz. Masalan, Y. Lotman “Badiiy matn strukturasi” kitobida matnga xos bo'lgan ayrim xususiyatlar haqida yoza turib, “matnning cheklanganligi” xususidagi o'z qarashlarini ilgari suradi. Lotmaning ta'kidicha, har qanday matnda “muqaddima” va “xulosa” mavjud bo'ladi, bu esa matnning chegaralanganligini ko'rsatadi². Lotman juda kuchli adabiyotshunos olim edi, ammo bu o'rinda badiiy asar xususiyatlari badiiy matn o'ziga xosligi bilan bir qadar chalkashtirilgan. Chunki muqaddima, xulosa, epilog, asosiy qism kabilar bu badiiy asarning kompozitsiyasini tashkil qiluvchi unsurlardir. Badiiy matn cheksizligi deyilganda esa matnning hajmi yoki unsurlari emas, balki tarkibida mavjud belgilarning chegarasiz harakati, belgi munosabatlarining son-sanoqsizligi tushunilishi kerak. Matn tarkibidagi belgilar faqat bitta matn doirasi bilan chegaralanmaydi, ular boshqa matn strukturalari tomon to'xtovsiz intiladi va ulardagi mos belgilar bilan o'zaro aloqaga kirishadi. Natijada matnlararo bog'liqlik paydo bo'ladi va u hech qanday chegarani tan olmaydi. Aslida, matn cheksizligi deyilganda, ayni shu jarayonlar nazarda tutiladi.
5. Badiiy asar turg'un xususiyatga ega, undagi har bir narsa o'z joyida qoladi va o'zgarmaydi. Matn esa to'xtovsiz, muttasil harakat qiluvchi cheksiz maydondir.
6. Badiiy asarning turg'unlik xususiyati uning o'z hududi bilan cheklanishiga sabab bo'ladi. Badiiy matnning harakati esa faqatgina o'z maydoni doirasida yuzaga kelmaydi. Balki ayni bir matndagi belgilar boshqa matndagi belgilarning harakatga kelishiga sabab bo'ladi. Natijada esa bunday matnlar o'zaro birlashib, intermatn – matnlararo doirani yuzaga keltiradi.

² Лотман Ю.С. Структура художественного текста. - // Лотман Ю.М. Об искусстве. – СПб.: «Искусство – СПб», 1998. – С. 14 – 285.

7. Badiiy asarga bir qatlamlilik xos. Ya'ni an'anaviy tahlil jarayonida qanday hukm chiqarilgan bo'lsa, barcha davr o'quvchilari uchun ayni shu hukm yakuniy xulosa bo'lib qolaveradi. Badiiy matn esa ko'p qatlamlidir. Ya'ni matndagi belgilar harakat jarayonida yangidan yangi ma'nolarni yuzaga chiqaraveradi. Va bu ma'nolar matn doirasida shunchaki tinch yashamaydi : ular ziddiyatga kirishadi, kurashadi. Bu matnning asosiy xususiyatlaridan biridir. Strukturalizmning yetakchi namoyondasi Rolan Bart ayni shu hodisani chiroyli tasvirlaydi: "Badiiy matn bu bir xil ipdan emas, balki turli-tuman, rang-barang iplardan pishiq va puxta to'qilgan matodir"³.

8. Badiiy asarda fikr fikr holida qoladi. Badiiy matn uchun esa har qanday fikr belgidir, ya'ni badiiy matn boshdan oxir belgilardan iborat bo'ladi.

Tahlilning yanada qulayroq bo'lishi uchun uni jadval ko'rinishida va soddaroq uslubda taqdim qilamiz:

T/r	<i>Badiiy asar</i>	<i>Badiiy matn</i>
1.	Moddiy – materialistik xarakterda.	Mavhum – idealistik xarakterda.
2.	O'z muallifiga ega.	Muallifga bo'ysunmaydi.
3.	Janriy-shakliy o'ziga xoslikka ega.	Yaxlit bir tizim – strukturadir.
4.	Muayyan chegaraga ega.	Cheksiz, chegarani tan olmaydi.
5.	Turg'un, o'zgarmas.	To'xtovsiz harakatda.
6.	O'z hududi bilan cheklanadi.	Boshqa matnlar bilan belgilar orqali birlasha oladi – intermatn.
7.	Bir qatlamli	Ko'p qatlamli (rang-barang ipli mato).
8.	Fikr fikrdir.	Fikr belgidir.

Yuqoridagi farqlardan ko'rinib turibdiki, har qanday badiiy matn bu oliy darajadagi badiiy asardir, ammo har qanday badiiy asar matn bo'lolmaydi. Struktural tadqiq ayni shu farqlar asosida chinakam matnni tanlab oladi va uni fazoviy kenglik o'lchamlarida tahlil qiladi. Milliy adabiyotimizga struktural tahlil nazari bilan yondashish bizga asl durdona badiiy boyliklarni saralash, millat tafakkurini shu kabi har tomonlama yetuk asarlar bilan boyitish, ularning zamon va makonga bo'ysunmasdan abadiy yashay olish imkoniyatini beradi.

Struktural analiz doirasida badiiy matn asarning ma'lum adabiy tur, adabiy janrga mansubligini ifodalovchi muayyan ta'rif va mavjud qoliqlangan qoidalarga bo'ysunmaydi, u an'anaviy yondashuvni sindirib tashlaydi. Badiiy matn obraz, janr yoki

³ Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва, Прогресс, 1989.-245 стр.

qandaydir adabiy muammo bo'yicha tahlil qilinmaydi. Bu matnning hal qiluvchi xususiyati hisoblanadi. Ayni shu sabab ham mukammal matn barcha zamonlar kitobxonlari tomonidan o'ziga xos tarzda, har safar yangicha qarash va talqinlar bilan qabul qilinaveradi. Badiiy matn hech qanday qoliplarni tan olmagan sababli makon va zamon uzra cheksizlikda yashayveradi.

Albatta, har qanday badiiy asarni matn sifatida tahlilga tortib bo'lmaydi, negaki har qanday badiiy asar ham matn talabiga javob berolmaydi. Badiiy asarni matn sifatida baholash yoki baholamaslik faqatgina tahlil jarayonida his etiladi. Matn talablariga javob berolmaydigan asar strukturalizmga **g'ayrimatn** (matnga tegishli emas, matnda o'zga) deb ataladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi badiiy asarlarni ayni shu ikki hodisa: badiiy matn va g'ayrimatn tamoyillari yuzasidan tahlil qilishi struktural metodning dolzarb vazifasidir.

Demak, struktural tahlil ilmiy tafakkurning tadrijiy pog'onasi sifatida adabiyotshunoslikda badiiy asardan badiiy matn sari qadam tashlash uchun asosiy omildir. Adabiyotimizda yaratilgan va yaratilayotgan badiiy asar namunalarini struktur metod orqali tahlil qilish, badiiy matn talabiga mos yoki mos emasligini aniqlash ularning jahon adabiyoti va adabiyotshunosligi doirasida munosib o'rin egallashi uchun muhimdir.

Ushbu maqola doirasida badiiy asar va badiiy matnning o'zaro tafovutini batafsil izohlashga harakat qildik, bu esa badiiy matn tushunchasi borasida yanada yaqqol tasavvur uyg'otadi, deb umid qilamiz.

REFERENCES

1. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. –Москва: Прогресс, 1989. –616 с.
2. Греймас А.Ж. Структурная семантика. – Москва: Академический проект, 2004. – 368 с.
3. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 371 с.
4. Саидова Р., Муродов Ф. Бадий матнда белги муносабатлари. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 64 б.

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL OF
“SCIENTIFIC PROGRESS” // ISSN: 2181-1601
CERTIFICATE

CONFIRMS THAT

Mohinur Faxritdinovna Farmonova

AUTHOR OF THE ARTICLE TITLED

Badiiy matnning o'ziga xosligi (strukturalistik talqinda)

PUBLISHED IN
VOLUME #2, ISSUE #5, SEPTEMBER 2021



EDITOR



SH.I.BOTIROVA



CONTENTS

Arofat Sadirdinovna Qo'shqarova, Jamila Aliyeva

Markaziy limit teorema asosida qurilgan yaqinlashish apparatlari uchun yaqinlashish masalalarini matematik modellashirish (pp. 4-6)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20001.%204-6.pdf>

Ikromjon Nodirbek o'g'li Muzaffarov

Yangi davrda inson huquqlarini va avlodlarini shakllanishi, rivojlanishi (pp. 7-10)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20002.%207-10.pdf>

Laylo Eson qizi To'xtasheva

Xorda nafas olish va uning turlari (pp. 11-13)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20003.%2011-13.pdf>

Kibriyo Abdullayeva, Abdumalik Ubaydullayevich Qoriyev

Yangi O'zbekistonning tinchlikparvar tashqi siyosati (pp. 14-18)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20004.%2014-18.pdf>

Шохрух Восилжон угли Эргашев

Ўзбекистон миллий транспорт тизимида рақамлаштириш (pp. 19-24)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20005.%2019-24.pdf>

Sh. V. Ergashev, N. U. Babahanova

Transport tizimini rivojlantirishda Blokcheyn texnologiyasidan foydalanishni tadbiq etish (pp. 25-29)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20006.%2025-29.pdf>

А. М. Нигматов, Х. Сирожова, Н. Абдуқаххорова

Система управления и контроль за состоянием сушилки фруктов (pp. 30-34)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20007.%2030-34.pdf>

Nodira Asqarali qizi Abduqodirova

Yangi O'zbekiston – yangi qo'shnichilik: Markaziy Osiyo davlatlari bilan qo'shnichilik (pp. 35-41)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20008.%2035-41.pdf>

Oybek Rustamovich Ortiqov

O'qituvchi faoliyatida pedagogik deontologiya va kompetlikning roli va ahamiyati (pp. 42-47)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20009.%2042-47.pdf>

Мухаммадбек Махсудов

Ер ресурсларини бошқариш соҳасини профессионал кадрлар билан таъминлаш масалалари (pp. 48-55)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20010.%2048-55.pdf>

Мохинур Нўмон қизи Аҳмедова

Глобал ахборот шароитида ёшлар маънавий-ахлоқий дунёқарашига таъсир қилувчи ижтимоий омилларнинг таъсири (pp. 56-60)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20011.%2056-60.pdf>

Mohinur Faxritdinovna Farmonova

Badiiy matnning o'ziga xosligi (strukturalistik talqinda) (pp. 61-65)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20012.%2061-65.pdf>

Shahnoza Azamatovna Alimova

Etiopatogenetic features of otitis media in patients with HIV infection (pp. 66-73)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20013.%2066-73.pdf>

Shahnoza Azamatovna Alimova

The incidence and clinical features of otitis media in patients with HIV infection (pp. 74-81)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20014.%2074-81.pdf>

Firangiz Suleymanovna Ikramova

Functional state of local immune status in inflammatory process in the middle ear in children (pp. 82-86)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20015.%2082-86.pdf>

Hamidulla Ibodulla ogli Suyunov

A new awakening in Uzbekistan - the third renaissance (pp. 87-89)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20016.%2087-89.pdf>

Z. B. Iminov

O'smirlarda sportga bo'lgan qiziqish sustligi va sportni aynan o'smirlik davrida tark etish sabablari? (pp. 90-93)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20017.%2090-93.pdf>

Фотим Баходир қизи Иминова

Хаётда қизларнинг касб танлашида бўладиган муаммоли вазиятлар (pp. 94-97)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20018.%2094-97.pdf>

Z. H. Sayitqulova

"Pride and prejudice" romanidagi Elizabetni baxtga yetaklagan qat'iyat (pp. 98-107)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20019.%2098-107.pdf>

Maftuna G'aniyeva

Boshlang'ich sinf darslarida TRIZ (Ixtirochi masalalarini hal qilish nazariyasi) dasturini qo'llashning samarali usullari (pp. 108-112)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20020.%20108-112.pdf>

Mohigul Movlonova

Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik uslublardan foydalanish ("Ufq" trilogiyasi misolida) (pp. 113-119)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20021.%20113-119.pdf>

Firuz Murodova

Abdulla Qodiriy asarlarini o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish (pp. 120-125)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20022.%20120-125.pdf>

Okhida Bakhtiyarovna Yuldasheva, Malika Sadykovna Fayzieva

The theme of the east in the work of Dina Rubina (pp. 126-133)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20023.%20126-133.pdf>

Kunduz Bozorovna Yuldashova

Yangi O'zbekiston yangicha dunyoqarashda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishda mahallaning o'rni (pp. 134-137)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20024.%20134-137.pdf>

Моҳигул Жамолдин қизи Алтундаг

Таржимашунослик эквивалентлик ҳодисаси муаммолари (pp. 138-143)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20025.%20138-143.pdf>

Рано Махкамовна Батырова

Инновационная парадигма «Виртуального» образования (pp. 144-153)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20026.%20144-153.pdf>

Ulug'bek Shokirovich Shukurov

Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning mintaqalari iqtisodiyotiga ta'siri (pp. 154-163)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20027.%20154-163.pdf>

Шохида Олимжон кизи Тиллаева, Шохиста Олимжон кизи Тиллаева, Хусанбой Эркин угли Махамматкулов, Бегзод Рўзматович Бободжонов

Болаларда аллергия ринит касаллиги ривожланишида атмосфера хавосининг таъсирини тадбиқ қилиш (pp. 164-170)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20028.%20164-170.pdf>

Malika Shukhrat qizi Keldiyararova, Abdumalik Asror o'g'li Ziyatov

Analysis of the direct and inverse kinematics in robotics (pp. 171-175)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20029.%20171-175.pdf>

Соҳиба Муллаева

Конвергент журналистикада User-generated контентнинг аҳамияти (pp. 176-178)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20030.%20176-178.pdf>

Меҳрибан Ахмедовна Ризаева

Распространенный признак анемии при диабетической нефропатии (pp. 179-182)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20031.%20179-182.pdf>

Хилола Шарифовна Яхъяева

Распространенный признак анемии при диабетической нефропатии (pp. 183-185)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20032.%20183-185.pdf>

Nilufar Mamatqulova

Alisher Navoiyning "Arba'in" asariga qisqacha sharh (pp. 186-188)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20033.%20186-188.pdf>

Latofat Umidjon qizi Erkinova

Quyonsimonlar gelmintofaunasi va uni oldini olish chora tadbirlari (pp. 189-191)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20034.%20189-191.pdf>

Лола Бахромовна Вафоқулова

Эркин иқтисодий зоналар Хитой Халқ Республикаси тажрибасида (pp. 192-198)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20035.%20192-198.pdf>

Иноят Каримовна Умарова, Джавахир Алишер угли Менгильбаев, Дилмурод Бахтиярович Махмарежабов

Изучение минералогического состава упорных золотосодержащих руд месторождения ауминзов (pp. 199-205)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20036.%20199-205.pdf>

Shuxrat Toshtemirovich Niyazov, Aziza Taxiurovna Djurabekova

Masofaviy davrda bolalardagi ensefalit va meningoensefalitning zamonaviy jihatlarini (adabiyotni o'rganish) (pp. 206-216)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20037.%20206-216.pdf>

Дилобар Қодир қизи Йўлдошева, Нодира Абдувохит қизи Махмудова

Ҳовуз балиқчилиги шароитида янги мерс ўғитини қўллаш ва самарадорлигини илмий асослаш (pp. 217-219)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20038.%20217-219.pdf>

Nargiza Doston qizi Yo'ldosheva

Xalq hunarmandchiligi yo'nalishida yog'och o'yimakorligi san'ati (pp. 220-222)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20039.%20220-222.pdf>

Mahliyo Faxriddin qizi Sayfiyeva, Saodat Aralovna Mo'minova

Boburiyzo da shahzoda tasviri (pp. 223-229)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20040.%20223-229.pdf>

Пайзулла Уринбаев, Мавлон Умирзакович Аширов, Отабек Икрамович Салохий, Равшанбек Хошимович Мирзаев

Опыт лечения диафизарных переломов пястных костей кисти (pp. 230-233)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20041.%20230-233.pdf>

Gulmira Temirovna Komilova

Nazariy tilshunoslikda sistema va struktura tushunchalarining ahamiyati (pp. 234-239)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20042.%20234-239.pdf>

Солижон Боходиржон ўғли Абдурахмонов, Тохиржон Маъмуржон ўғли Охунов, Исломбек Ахаджон ўғли Махсудов

Давлат бошқарув идоралари ахборот ресурслари конфиденциаллигини таъминлашнинг ҳуқуқий асослари (pp. 240-250)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20043.%20240-250.pdf>

Мухаммаджон Абдухалим ўғли Абдухамидов

“Китоб ас-савод ал-аъзам” асарида калом илмига оид тушунчаларнинг қиёсий таҳлили (pp. 251-258)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20044.%20251-258.pdf>

Ibrohim Shuxratovich Fayziyev

Yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini ta'minlashning milliy va xalqaro-huquqiy asoslari (pp. 259-266)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20045.%20259-266.pdf>

Mahliyo Muqimxo'ja qizi Turdixo'jayeva

Farg'ona vodiysi arxeologik ekspeditsiyalar tarixshunosligi (pp. 267-272)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20046.%20267-272.pdf>

Лола Музаффаровна Каримова

Абдурахмон Жомий фалсафий дунёқараши шаклланишининг генезиси (pp. 273-282)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20047.%20273-282.pdf>

Raizulla Urinbaev, Boburjon Aslonovich Mamatkulov

Functional disorders of the hand in diaphyseal fractures of the metacarpal bones and causes of long-term injuries (pp. 283-286)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20048.%20283-286.pdf>

Д. Д. Ибрагимов, У. Н. Мавлянова, Ф. Ш. Кучкоров, И. Халилов

Причина развития одонтогенного остеомиелита при несвоевременной хирургической стоматологической тактике (случай из практики) (pp. 287-291)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20049.%20287-291.pdf>

Mokhirakhon Kurbonaliyeva Khusanova

Comparison of filters with finite pulse characteristics and infinite pulse characteristics in MATLAB (pp. 292-299)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20050.%20292-299.pdf>

Mokhirakhon Kurbonaliyeva Khusanova

Using decimation and interpolation when processing signals in MATLAB (pp. 300-306)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20051.%20300-306.pdf>

Elmurod Shuhrat o'g'li Narzullayev, Nosir Mahmudovich Mahmudov

Ijtimoiy korxonalar faoliyatini yuritish uchun eng qulay mamlakatlar ro'yxatiga kirish orqali ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish (pp. 307-312)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20052.%20307-312.pdf>

Mohinur Zokirovna Maxmudova

An'anaviy turar-joylarda devorlarning dekorativ bezatilishi (pp. 313-316)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20053.%20313-316.pdf>

Anvarjon Rasulov, Maxinur Xasanova

Protection system against the infringement of information signals in fiber communication system (pp. 317-326)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20054.%20317-326.pdf>

Шохсанам Ҳакимовна Ўктамова, Ҳасан Халилович Қобилов

Олий таълимда талабаларнинг шахсий-креатив компетенциясини ривожлантириш омиллари (pp. 327-329)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20055.%20327-329.pdf>

Malika Adilovna Usmanova

Fransuz tili fonetikasini qiyoslab o'rganishning ahamiyati (pp. 330-332)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20056.%20330-332.pdf>

Nursulton Shayxislamov

Jahon lingvistik ekspertologiyasida tarkibiy qismlar masalasining o'rganilishi (pp. 333-337)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20057.%20333-337.pdf>

Nazira Rustamova

Genetikaga doir masalalar yechish metodikasi xususida (pp. 338-344)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20058.%20338-344.pdf>

Улугбек Тургутович Мухамедханов, Фарида Икром қизи Норова, Малика Икрамовна Норова

Автоматизированная система управления непрерывного процесса извлечения масла (pp. 345-349)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20059.%20345-349.pdf>

Л. А. Кучков, Н. К. Турсунов

Исследование состава формовочных и стержневых смесей для повышения механических свойств (pp. 350-356)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20060.%20350-356.pdf>

Фаррух Назарбаевич Базарбаев, Абулқосимхўжа Абдужабборович Абдуҳолиқов, Гулноза Фарход кизи Файзуллаева

Говакликли тўлдиргичлар асосида деворбоп иссиқ изоляцияловчи материалларни ишлаб чиқариш технологиясини тадқиқ қилиш (pp. 357-362)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20061.%20357-362.pdf>

Ш. Жуманазаров, А. Жумагулов

О перспективах развития геофизических исследований в Узбекистане (pp. 363-368)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20062.%20363-368.pdf>

S. Alikulov

Toshkent shahar Markaziy davlat arxividagi ijtimoiy hayot bilan bog'liq hujjatlar (pp. 369-376)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20063.%20369-376.pdf>

Kamola Abdulloyeva

Ingliz hamda o'zbek ertaklarining lingvomadaniy hamda stilistik tahlili (pp. 377-381)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20064.%20377-381.pdf>

Мадина Мирхалиловна Фозилова, Дильноз Тулкуновна Мухамедиева, Умиджон Нурмухамат угли Хикматов

Разработка модели анализа и прогнозирования потребностей рынка в лекарственных средствах (pp. 382-388)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20065.%20382-388.pdf>

Mahfuzaxon Abdumannob qizi Jaloldinova

Янги Ўзбекистон: ижтимоий ҳимоя ривож, ислом ҳуқуқи жиҳатидан талқини (pp. 389-396)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20066.%20389-396.pdf>

Guzal Xosilova, Guzal Ismoilova

Mollyuskalarining tabiat muvozanatidagi ijobiy va salbiy ahamiyati (pp. 397-400)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20067.%20397-400.pdf>

Abdurahmon Nodirjon o'g'li Yusupov, Mirzakamol Sobitjonovich Ayubov, Bexzod Orifjon o'g'li Mamajonov, Lola Xayriddinova Pazlieva

CRISPR/Cas9 texnologiyasi yordamida soya genomini tahrirlash (pp. 401-408)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20068.%20401-408.pdf>

Махсуд Мирваситович Адилов, Муродулла Абдумуминович Уралов

Влияние массы семян на урожайность картофеля, выращиваемого в повторной культуре (pp. 409-415)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20069.%20409-415.pdf>

Умида Сувонова, Нигина Рахмонова

Ислом таълимотида оила этикаси (pp. 416-419)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20070.%20416-419.pdf>

To'lqin Mamatqobulov

Ashtarxoniylar davrida yozilgan manbalarda Ashtarxoniylar davrning siyosiy hayoti (pp. 420-424)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20071.%20420-424.pdf>

Жанибек Файзуллаевич Курбанов, Зоҳид Баҳрон ўғли Тошбоев

Темир йўл саралаш тепалиги автоматика ва телемеханика назорат қурилмаларини микропроцессор бошқарув асосида такомиллаштириш (pp. 425-431)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20072.%20425-431.pdf>

Жанибек Файзуллаевич Курбанов, Зоҳид Баҳрон ўғли Тошбоев

Саралаш тепалигидаги автоматлаштирилган бошқарув тизими жараёнларини ривожлантиришни асосий тамойиллари (pp. 432-435)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20073.%20432-435.pdf>

Дилноза Мавлановна Парманова, Фаррух Муродулло ўғли Алиқулов

Қорақўлчиликда қорақалпоқ сур насли қўзиларни олиш усуллари (pp. 436-440)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20074.%20436-440.pdf>

И. Х. Усмонов, У. З. Шукуров, М. У. Абдукаримов, Ж. О. Сулаймонов

Современная диагностика и лечения туберкулеза легких у ВИЧ инфицированных больных (pp. 441-445)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20075.%20441-445.pdf>

Гуландон Орзиқулова

Исажон Султоннинг «Боқий дарбадар» романида бадиий асар тили масаласи (pp. 446-453)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20076.%20446-453.pdf>

Alisher Mamatqulov

Inson huquqlarini himoya qilishda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining o'rni (pp. 454-456)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20077.%20454-456.pdf>

Madinaxon Muxiddin qizi Abdujalilova, Nigora Axmat qizi Taxtaxodjayeva,**Fotima-bonu Qaxramon qizi Eraliyeva, Odina Rustam qizi Abdunabiyeva**

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini shakllanishida oila va muhitning ta'siri (pp. 457-460)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20078.%20457-460.pdf>

Madinaxon Muxiddin qizi Abdujalilova, Nigora Axmat qizi Taxtaxodjayeva,**Fotima-bonu Qaxramon qizi Eraliyeva, Odina Rustam qizi Abdunabiyeva**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirishning nazariy asoslari (pp. 461-464)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20079.%20461-464.pdf>

Шухрат Абдулазизович Махмудов

Тилшуносликда лексик пресуппозициянинг ўрганилиши (pp. 465-468)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20080.%20465-468.pdf>

Жасурбек Ғайратжон ўғли Ғайратов, Жасурбек Ғайратжон ўғли Ғайратов

Штампларни таъмирлашда замонавий технология хромлаш усулидан фойдаланиш (pp. 469-473)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20081.%20469-473.pdf>

Эркин Мамадалиевич Гуломхасанов, Камронбек Каримов, Мадина Лазизова

Развитие экономики на территории бухарской области после кризиса COVID-19 (pp. 474-478)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20082.%20474-478.pdf>

Erkin G'ulomxasanov, Nurbek Abdullayev, Shoxrux Jurayev

Turizmni transport vositalari orqali rivojlantirish (pp. 479-482)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20083.%20479-482.pdf>

Erkin G'ulomxasanov, Nilufar Rahmatova

Qashqadaryo turizmida Shahrisabz shahrining tutgan o'rni (pp. 483-487)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20084.%20483-487.pdf>

Р. Ф. Жуманиёзова, З. А. Собирова

Чарм кийимларининг янги ассортиментлари ва замонавий мода тенденциялари (pp. 488-491)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20085.%20488-491.pdf>

Azamat Abdurashidovich Umirzoqov

Small-scale quarry transportation system (pp. 492-497)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20086.%20492-497.pdf>

Гулноза Шаакбар кизи Атабаева

Сув ресурсларининг долзарб экологик муаммолари (pp. 498-500)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20087.%20498-500.pdf>

Arslan Zinxaydarovich Satbaev, Nuratdin Mnajatdinovich Zinatdinov

Shórlangan yerlarda organo-mineral kompostlarning góza chigitining unuvchanligiga tásir (pp. 501-503)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20088.%20501-503.pdf>

Дилафруз Абдураззок кизи Уролова, Жумабек Сагдуггаевич Бабаев, Бегзод Орипович Убайдуллаев

Клинические характеристики когнитивных расстройств при гипертонической болезни (pp. 504-512)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20089.%20504-512.pdf>

Туйғунжон Турғунович Шакиров, Махсет Муратбаевич Базарбаев

Исследование влияния добавки «Бетон СТРОНГ 17» на физико-механические характеристики легкого бетона на основе керамзита (pp. 513-518)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20090.%20513-518.pdf>

Манзура Авазжон кизи Комилова

Анализ психолого-социальных проблем несовершеннолетних (pp. 519-523)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20091.%20519-523.pdf>

Madina Xolmo'min qizi Xudoyorova

Psixologiyada baxt tushunchasi (pp. 524-526)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20092.%20524-526.pdf>

Gulhayo Hamroqulovna Eshniyozova

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida qo'llanilgan leksik birliklar (pp. 527-529)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20093.%20527-529.pdf>

Бухарбай Турганбаевич Курбанов, Расул Жубатханович Беглербеков

Интегральная формула Коши-Сеге для одной области Зигеля второго рода (pp. 530-534)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20094.%20530-534.pdf>

Hulkar Ibrohimovna Majidova

Translation and modernity (pp. 535-538)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20095.%20535-538.pdf>

Mavluva Usmanovna Xolbekova, Muhiddin Abdurashidovich Tajibayev

Spiritual courage is the greatest courage (pp. 539-543)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20096.%20539-543.pdf>

Sitora Yusufjonovna Azimova, Muhiddin Abdurashidovich Tajibayev

Improvement of spiritual and educational work - it is our important task (pp. 544-548)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20097.%20544-548.pdf>

Jalol Tursunmuratovich Axmedov, Muhiddin Abdurashidovich Tajibayev

Young people from different information attacks care is a requirement of the time (pp. 549-553)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20098.%20549-553.pdf>

Muhiddin Abdurashidovich Tajibayev, Jahongir Botirovich Anorboev

Spiritual-enlightenment of society education of youth in formation (pp. 554-557)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-5.%20099.%20554-557.pdf>
